

MUSIQIY QOBILIYAT

*Andijon davlat pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” yo’nalishi talabasi
Nozimjonova Kamola Farxod qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqola yosh avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining tutgan o'rni, qolaversa musiqiy qobiliyatinnig ahamiyati va uning rivojlantirish kabi ma'lumotlar berib o'tilgan. Olim va tadqiqotchilarning musiqiy tarbiya va qobiliyat borasida olib borgan tadqiqot ishlari taxliliy yoritib o'tilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy madaniyat, musiqiy tarbiya, musiqiy qobiliyat, talant, musiqiy tajriba.

МУЗЫКАЛЬНЫЕ СПОСОБНОСТИ

*Студентка “Музыкальное образование” Андиканского
государственного педагогического института Нозимжонова Камола
Фархадовна*

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли музыки в воспитании молодого поколения, а также о значении музыкальных способностей и их развитии. Аналитически освещена исследовательская работа учёных и исследователей музыкального образования и способностей.

Ключевые слова: нравственная культура, музыкальное образование, музыкальные способности, талант, музыкальный опыт.

MUSICAL ABILITY

*Student of the direction "music education" of the Andijan State Pedagogical
Institute Nazimzhonova Kamola Farkhad qizi*

Annotation: This article provides information on the role of music in the education of the young generation, as well as the importance of musical ability and its development. The research work of scientists and researchers on musical education and ability is analytically covered.

Keywords: moral culture, musical education, musical ability, talent, musical experience.

Kirish.

Musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarning ma’naviy badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g‘urur va Vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatları, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib etishlarida o'ziga xos, takrorlanmas manba bo'lib hizmat qiladi.

Muhokama va natijalar.

«Musiqa tarbiya musiqachini tarbiyalashgina emas, bu — avvalombor insonni tarbiyalashdir», – degan V.A.Suxomlinskiy.

XIX-asr bastakorlari, insonlarni eng oljanob va yorqin g'oyalar ruhida tarbiyalaydigan yuksak san'atni qadirlaydigan, ehtirosli kurashchilardir. Ular ko'pincha musiqa haqida so'zlab, uning mazmunini tushuntirib, iloji boricha ko'proq insonlarni unga tanishtirishga harakat qilishadi. Musiqani anglashda Shumann, Berlioz, List, Vagnerning maqolalari va kitoblari musiqiy g'oyalarning murakkab dunyosini tushunishga yordam beradi.[1.84.]

Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha, “insonning maktabgacha yosh davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bu yoshdagи bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir”.[2.2.]

Musiqaning ta'sirchan tabiatি Aristotelning musiqani tushunishiga ma'lum, ammo bu zamonaviy davrda mavjud bo'lgan ehtirosli hissiyotni tan olmaydi. Shu bilan u o'z davri va sinfining e'tiqodlarini falsafiy ongga ko'taradi. [3.66.]

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'z vazifasini bajarishda savollar bilan, ba'zan esa o'yin orqali mavzuni turli mazmunda va ko'rinishda shaxsan ishtirok etib mavzu mohiyatini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam berishi mumkin.

“Qobiliyat – ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o'zlashtirish dinamikasıdır”.[4.613.]

Qobiliyatlar – faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin, faqat musiqagina insonning musiqiy hislarini uyg'otadi. Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo'lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Svetlanov tomonidan "musiqa bugun" kitobida maqolalar, insholar, dirijyor bilan intervyular, hamda estetik musiqa haqida sharhlarni ko'rish mumkin. [5.55.] Mazkur kitobning asosiy mazmuni musiqiy qobiliyat va estetik tarbiyaga qaratilgani ahamiyatga molik. Pifagor Frigiya rejimida musiqani yanada o'lchangan - Dorianga o'zgartirish orqali tinchlantirishga muvaffaq bo'lgan[6.6.]deb takidlaydi.

Pedagog N.V. Vetlugina "... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi" – deb ta'kidlagan.[7.614.] Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir.

Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkonini qobiliyatidir.

Musiqiy tajribaga nisbatan "realizm" deganda musiqaning estetik xususiyatlarini va ushbu xususiyatlarni idrok etishimizni ta'kidlaydigan qarashni nazarda tutamiz: musiqiy tajriba-bu ko'plab tovushlarni anglash, shuningdek tovush tuzilishi va uning estetik xususiyatlari va bu musiqiy tajribaning mazmunidir." [8.8.]

Hulosa.

Hulosa qilib aytganda olimlari tomonidan olib borilgan tadqlisolotlar natijasi shaxsnинг qobiliyatini rivojlantirishda bir necha bosqichlarni bosib o'tish talab etilishi o'z namunasini ko'rsatgan. Shunday ekan qobiliyatni rivojlantirishda ruhiyatga, inson ongi va qalbiga kuchli ta'sir etuvchi omillrdan biri bo'lishini yana bir bora isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1.] Методика преподавания музыки с практикумом : учебно-методич. комплекс / Л.А. Захарчук, А.М. Захарчук; Брест. гос. ун-т имени А.С. Пушкина. – Брест : БрГУ, 2016 . - 84 с.
- [2.] Bolalarda psixologik xususiyatlarning rivojlanishida nutq o'stirish mashg'ulotlarining ahamiyati // <http://www.hozir.org/gulxan-xayitmurodova.html?page=6>
- [3.] Денеш Золтаи. ИСТОРИЯ ФИЛОСОФСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЭСТЕТИКИ ОТ ЗАРОЖДЕНИЯ ДО ГЕГЕЛЯ. М.,1977. 66ст.
- [4.] Xujayeva N. Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish // "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 3. – 613-б.
- [5.] Xujayeva N. Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish // "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 3. – 614-б.
- [6.] Светланов Е. Музыка сегодня: Статьи, рецензии, очерки. - М., 1985.
- [7.] Ник Зангвилл. Музыка и эстетическая реальность: формализм и пределы описания. Страница 20. 2014 год.